


**“TASDIQLAYMAN”**  
**O‘zbekiston Respublikasi Adliya**  
**vaziri o‘rinbosari,**  
**Xarid komissiyasining raisi**

  
**R. A. Muhammadiyev**  
**“07” oktyabr 2022-yil**



**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qurilish nazorat o‘lchovi xizmati ko‘rsatuvchi  
tashkilotni aniqlash bo‘yicha**

**ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH HUJJATI**

**Toshkent-2022-yil**

## MUNDARIJA

- I Bob. Qatnashchiga ko'rsatma
- II Bob. Taklif shakllari
- III Bob. Shartnoma shakli va texnik talablar

## I BOB. QATNASHCHIGA KO'RSATMA

### A. Umumiy ma'lumot

Tanlash predmeti  
Mazkur hujjatlarida ishlatiladigan tushunchalar  
Xarid komissiyasining vazifalari  
Texnik va tijorat takliflarini baholash guruhining vazifalari  
Qatnashchiga Tanlashda qatnashish uchun qo'yiladigan malaka talablari  
Tanlash doirasida hujjatlarning maxfiylikini ta'minlash

### B. Tanlash hujjatlari

Tanlash hujjatining tarkibi  
Tanlash hujjatlariga aniqlik kiritish  
Tanlash hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish

### V. Tanlash hujjatlarini tayyorlanishi

Tanlash da qatnashish xarajatlari  
Tanlashda qo'llaniladigan til  
Tanlash taklifini tashkil qiluvchi hujjatlar  
Taklif shakli va narx jadvali shakllari bo'yicha tushuntirish  
Muqobil takliflar  
Tanlash taklifini rasmiylashtirish va imzolash

### G. Tanlash taklifining topshirilishi

Tanlash takliflarini elektron topshirish  
Tanlash takliflarini topshirishning oxirgi muddati

### D. Tanlash takliflarini baholash va g'oliblarni aniqlash tartibi

Tanlash takliflarini baholash va g'oliblarni aniqlash  
Takliflarning mos kelmasligi

### Ye. Shartnomani rasmiylashtirish

Shartnomani rasmiylashtirish  
To'lov shartlari  
Shartnomani imzolash

## **A. UMUMIY MA'LUMOTLAR**

### **1. Tanlash predmeti**

Tanlash komissiyasi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-son Qarori asosan amalga oshiradi.

#### **Tanlashni tashkil qilishning asosiy maqsadlari quyidagilar:**

Tanlashni o'tkazish ochiq turda bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirli byudjetdan tashqari mablag'lari hisobidan 2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qurilish nazorat o'lchovi o'tkazish xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotni aniqlash bo'yicha Tanlash o'tkazishni ko'zda tutilgan.

Obyekt nomi: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'muriy binosini (Toshkent shahar, Mirobod tumani, A.Temur shoh ko'chasi, 16a-uy) kapital ta'mirlash yuzasidan qurilish nazorat o'lchovi (pudrat shartnomasi summasi 6,5 mlrd.so'm).

Obyekt nomi: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi ma'muriy binosini (Toshkent shahar, Shayxontoxir tumani, Xadra massivi, 33-uy) rekonstruksiya ishlarini yuzasidan qurilish nazorat o'lchovi (pudrat shartnomasi summasi 14,1 mlrd.so'm).

Tanlashga qo'yilgan tovarning (xizmatning, ishning) narxi 315 000 000 so'm, qo'shimcha qiymat solig'i bilan.

Ishlar tanlash hujjatlarining tijorat qismida joylashgan talablariga binoan bajarilishi lozim.

Xizmat ko'rsatish muddati: 2022-yil davomida 2 oy.

### **2. Mazkur tanlash hujjatlarida ishlatiladigan tushunchalar**

Byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan 2022-yil uchun qurilish nazorat o'lchovi xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotni aniqlash bo'yicha bo'yicha tanlash (keyingi o'rinlarda – tanlash o'tkazish) o'tkazishdan maqsad – mazkur tanlash hujjatlari talablari asosida tizimni yaratib beruvchi tashkilotni.

Tanlash o'tkazish tartibi – bir bosqichli.

**Buyurtmachi** – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

Manzili: 100000, Toshkent shahar, Yunusobod tumani, Sayilgox ko'chasi, 5 uy;

tanlashni tashkil etish va o'tkazish uchun mas'ul shaxs – Tanlash komissiyasi kotibi Ismatov Samariddin Abdusalilovich;

Tel.: (71) 207-04-55, ichki 1257.

### **3. Tanlash komissiyasining vazifalari:**

- tanlash o'tkazish o'tkazish tartib-qoidalarini belgilaydi;
- belgilangan tartibda tanlashni o'tkazadi;
- tanlash o'tkazish talabgorlariga taalluqli barcha hujjatlarni taqdim qilish, muddatini uzaytirish to'g'risida qaror qabul qilish;
- tanlash o'tkazish bo'yicha kelib tushgan takliflarni ochish ko'rish belgilash;
- tanlash hujjatlari bilan belgilangan talablarga (taqdim etilgan hujjatlarning to'liqligi, ularning rasmiylashtirilishi va hokazo) muvofiqligini tekshiradi;
- talabgorlar tomonidan taqdim etilgan takliflarini ko'rib chiqishda narxlarning sun'iy ravishda oshirilishini oldini olish va xolislikka hamda qonun hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilish;
- zarur hollarda komissiya faoliyatiga mutaxassis xodimlar jalb etilishini nazarda tutish;
- g'olib deb topilgan talabgorlar bilan shartnoma imzolash bo'yicha taklif beradi.

**Tanlashning tashkilotchisi** - Ishchi organ. Uning vazifasiga quyidagilar kiradi:

- eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi va ularni o'rnatilgan tartibda talabgorlarga taqdim etadi;

- eng yaxshi takliflarni tanlash o'tkazilishi to'g'risida respublika tovar xom ashyo birjasining www.etender.uzex.uz portalida, Vazirlik rasmiy veb-saytiga va "Facebook"dagi ijtimoiy tarmog'ida va boshqa ommaviy axborot vositalariga e'lon beradi;

- eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini baholash mezonlari ishlab chiqilishini ta'minlaydi.

### **4. Texnik va tijorat takliflarni baholashda eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasining**

**vazifalari:**

- eng yaxshi takliflarni tanlashning texnik takliflarini o'rganadi, tahlil qiladi va ko'rib chiqadi;
- eng yaxshi texnik taklifni aniqlaydi;
- qatnashchilarning eng yaxshi takliflarni tanlashga taqdim etilgan moliyaviy hujjatlarini va narx takliflarini o'rganadi, tahlil qiladi va ko'rib chiqadi;
- eng yaxshi eng yaxshi takliflarni tanlash taklifini aniqlaydi, g'olibni aniqlaydi va qaror qabul qiladi.

**Qatnashchi** - mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, eng yaxshi takliflarni tanlash talablarida ko'rsatilgan tovarlarni yetkazib berish va xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha tajribaga ega bo'lgan tashkilotlar.

**Qatnashchi:**

- taqdim etilgan ma'lumotlar va hujjatlarning haqiqiyliigi va to'g'riligi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi;
- faqat bitta taklifni taqdim etish huquqiga ega;
- taqdim etilgan taklifni takliflarni taqdim etish muddati tugamaguncha qaytarib olish yoki o'zgartirish huquqiga ega.

**5. Qatnashchiga eng yaxshi takliflarni tanlashda qatnashish uchun qo'yiladigan malaka talablari**

Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini tayyorlaydi va eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasiga taqdim etadi. Ularning faoliyatini va moliyaviy holatini baholash uchun zarur bo'lgan qo'shimcha axborotni taqdim etadi (Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasining so'roviga ko'ra).

5.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash qatnashchilarini malakali eng yaxshi takliflarni tanlashi Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Eng yaxshi takliflarni tanlash qatnashchilari quyidagi hujjatlar yordamida malakali tanlanadi:

- korxon va tashkilotlarining kichik yoki yirik biznes subyektlariga tegishliligi to'g'risidaga ma'lumotnoma;
- talabgor bankrot holatida emasligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma;
- talabgorning tugatilish yoki qayta tashkil etilish jarayonida emasligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma;
- yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tganligini tasdiqlovchi guvohnomaning nusxasi;
- tegishli vakolatli organ tomonidan berilgan eng yaxshi takliflarni tanlash talablarini amalga oshirish xuquqini beruvchi litsenziyaning nusxasi;
- davlat soliq inspeksiyasi va talabgor o'rtasida byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar oldidagi majburiyatlar bo'yicha qarzi yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma;
- xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan talabgorning hisob raqamlarida kartoteka (K-2) bo'yicha qarzi yo'qligi to'g'risida ma'lumotnoma asli.

Davlat tashkilotlari tomonidan saralash bosqichiga taqdim etish uchun berilgan har bir ma'lumotnomada talabgorning STIRi ko'rsatilgan bo'lishi va eng yaxshi takliflarni tanlash e'lon qilingandan so'ng olingan bo'lishi shart.

5.2. Malakali eng yaxshi takliflarni tanlashdan o'tgan qatnashchi eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasiga elektron taqdim qilgan bo'lishlari kerak.

- qatnashchining tashkiliy shakli (1-shakl);
- qatnashchi to'g'risida umumiy ma'lumot (2-shakl);
- qatnashchining tajribalari to'g'risida ma'lumot (3-shakl);
- moliyaviy ahvoli (4-shakl);
- mahsulotni tayyorlash va xizmatlarni ko'rsatish uchun moddiy resurslarning mavjudligi (5-shakl);
- zakalat haqida kelishuvi va Buyurtmachining hisob raqamiga o'tkazilgan zakalat summa to'g'risida to'lov topshiriqnomasining asli, agar eng yaxshi takliflarni tanlash talablarida ko'rsatilgan bo'lsa (6-shakl);

- mahsulotning va xizmatning texnik tavsif jadvali (7-shakl);
- oxirgi uch yillik moliyaviy hisobot (hisobxona balansi va moliyaviy natijalar) nusxasi;
- mahsulotni yetkazib berish, xizmatlarni ko'rsatish jadvali (8-shakl);
- eng yaxshi takliflarni tanlash taklifi (9-shakl);
- mahsulot, xizmat uchun taklif qilinayotgan narx (10-shakl);

5.3. Qatnashchi eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini tayyorlash va taqdim etish davomida sarflangan barcha moliyaviy xarajatlarni o'z hisobidan qoplaydi.

5.4. Eng yaxshi takliflarni tanlashda g'olib chiqqan taqdirda buyurtmachi bilan shartnoma tuzadi.

**Eng yaxshi takliflarni tanlash g'olibi** – takliflarni baholash yakunlari bo'yicha eng yaxshi takliflarni tanlashda eng ko'p ball to'plagan eng yaxshi takliflarni tanlash qatnashchisi.

**Zahiradagi qatnashchi** – eng yaxshi takliflarni tanlash g'olibidan keyingi o'rinda turgan ko'p ball to'plagan qatnashchi.

5.5. Eng yaxshi takliflarni tanlashga quyidagi qatnashchilar qo'yilmaydi:

- shartnomani bajarish uchun zarur texnikaviy, moliyaviy, moddiy, kadrlar resurslarining hamda boshqa resurslari mavjud bo'lmagan;

- shartnoma tuzish uchun qonuniy huquqqa ega bo'lmagan;

- tugatish yoki bankrotlik bosqichida bo'lgan;

- faoliyati sud yoki hakamlik sudida muhokamada ko'rib chiqilayotgan;

- davlat reestrda ro'yxatga olinganligiga olti oy muddatdan kam bo'lgan;

- insofsiz ijrochilarning yagona ro'yxatida bo'lgan;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjet va byudjetdan tashqari fondlar oldida qarzdorligi mavjud bo'lgan;

- imtiyozli soliq rejimini ta'minlaydigan va/yoki moliyaviy operatsiyalarni (offshor zonalar) amalga oshirishda ma'lumotni oshkor qilish va taqdim etishni nazarda tutmaydigan hududlarda ro'yxatdan o'tgan va bank hisob raqamlariga ega bo'lgan;

- avval imzolangan shartnomalar bo'yicha kelishilgan majburiyatlarni o'z muddatida bajarmagan;

- tegishli tijorat va moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha Komissiya talablariga javob bermaganda, ular to'g'risida tegishli qaror qabul qilinadi.

Buyurtmachi quyidagi hollarda ishtirokchini xarid tartib-taomillarida qatnashishdan chetlashtiradi, agar:

- ishtirokchi bevosita yoki bilvosita mijozning har qanday amaldagi yoki sobiq mansabdor shaxsini yoki xodimini yoki boshqa davlat organining har qanday shaklda mablag', ish taklifini yoki boshqa har qanday qimmatbaho buyumlarni yoki xizmatlarni taklif qilishi, berishi yoki berishga rozi bo'lganligi - yoki xaridorning davlat xaridlari jarayonida harakatlari yuzasidan qaror qabul qilishi yoki har qanday raqobat tartibini qo'llashi;

- ishtirokchi qonunga xilof ravishda adolatsiz raqobat ustunligi yoki manfaatlar to'qnashuviga ega bo'lsa.

## **6. Eng yaxshi takliflarni tanlash doirasida hujjatlarning maxfiyligini ta'minlash**

6.1. Tushgan takliflarning ko'rib chiqilishi, ularning eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi a'zolari tomonidan baholanishi to'g'risidagi axborot maxfiy hisoblanadi hamda eng yaxshi takliflarni tanlash tartib-qoidasiga rasman aloqador bo'lmagan shaxslarga ma'lum qilinmaydi. Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi a'zolari mazkur axborot oshkor qilinganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

## **B. ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH HUJJATLARI**

### **7. Eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatining tarkibi**

7.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash qatnashchisi unga berilgan eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatini va shu bilan birga barcha ko'rsatmalar, shakllar, shartlar va texnik tafsilotlarni to'liq o'rganib chiqishi shart.

7.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan barcha talab qilingan

ma'lumotlarni bermaslik yoki taklifning eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlari talablariga to'liq to'g'ri kelmasligi, taklifning qabul qilinmasligiga olib keladi.

### **8. Eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlariga aniqlik kiritish**

8.1. Hujjatlarni taqdim etish muddati tamom bo'lgunga qadar Qatnashchi eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlariga qandaydir aniqlik kiritish uchun eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasiga yozma ravishda murojaat qilishlari mumkin:

8.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi talabgorning so'roviga ko'ra Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini taqdim etishning so'nggi muddatidan kamida 3 kun oldin so'rov manbasini ko'rsatmagan holda eng yaxshi takliflarni tanlashning barcha qatnashchilariga majburiy tartibda javob yuborib, eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlarining mohiyati yoki mazmuni bilan bog'liq savolga yozma javob berishi shart.

### **9. Eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish**

9.1. Takliflarni taqdim etish muddati tamom bo'lgunga qadar kamida 3 kun oldin eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasining komissiya qaroriga muvofiq talabgorlarga ma'lum qilib, taklifga tuzatish kiritish uchun yetarli bo'lgan vaqt bergan holda, uning muddatini uzaytirib, eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga haqlidir.

## **V. ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH HUJJATLARINI TAYYORLANISHI**

### **10. Eng yaxshi takliflarni tanlashda qatnashish xarajatlari**

10.1. Eng yaxshi takliflarni tanlashda ishtirok etish va eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatini tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar qatnashchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

10.2. Narx taklifida ko'rsatilgan narx eng yaxshi takliflarni tanlash taklifi narxi hisoblanadi.

10.3. Eng yaxshi takliflarni tanlash taklifi narxi milliy valyuta - so'mda to'lanishi kerak.

10.4. Mahsulot (xizmat, ish) narxi(taklif)ga barcha harajatlar, ya'ni soliq hamda byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga majburiy to'lovlar kiritiladi.

10.5. Qatnashchi tomonidan belgilangan narxlar mahsulotni yetkazib berish (xizmatlarni ko'rsatish) majburiyatlarini ohiriga yetkazilmagunga qadar o'zgartirilmaydi (eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasining narxlarni tushirish bo'yicha muzokaralar olib borish natijasida o'zgartirishlar kiritilishi mumkin).

10.6. Narxlarning oshishiga qarab o'zgartiriladigan narxlarni ko'zda tutuvchi eng yaxshi takliflarni tanlash takliflari istalgan bosqichda, eng yaxshi takliflarni tanlash talablariga javob bermaydi deb qaraladi va eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi tomonidan ko'rib chiqilishi rad etiladi.

### **11. Eng yaxshi takliflarni tanlashda qo'llaniladigan til**

11.1. Qatnashchilar tomonidan berilayotgan takliflar, Buyurtmachi va qatnashchi o'rtasidagi xatlar va barcha tegishli hujjatlar o'zbek tilida tayyorlanadi.

### **12. Eng yaxshi takliflarni tanlash taklifini tashkil qiluvchi hujjatlar**

12.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflari elektron skaner variantda bo'lishi lozim.

12.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi lozim bo'lganda Eng yaxshi takliflarni tanlash qatnashchilaridan taqdim etilgan Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini tasdiqlash uchun qo'shimcha yoki boshqa ma'lumotlarni talab qilishi mumkin.

### **13. Taklif shakli va narx jadvali shakllari bo'yicha tushuntirish**

13.1. Qatnashchi eng yaxshi takliflarni tanlash taklifini qat'iy ravishda mazkur eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatining II bobidagi shakllar asosida berishi kerak.

13.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash taklifi shakllaridagi barcha bo'sh grafalar eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlari talablari asosida to'ldirilishi zarur.

13.3. Qatnashchi taklif etilayotgan mahsulot (xizmat) uchun narx taklifini eng yaxshi takliflarni tanlash taklifi shakli asosida taqdim etishi kerak.

### **14. Muqobil takliflari**

14.1. Afzalroq texnik (funktsional) ko'rsatkichlarga ega bo'lgan mahsulot (xizmat) ko'rinishida berilgan muqobil takliflari bo'lishi mumkin. Bu holda narx ko'rsatkichlarini baholash paytida bunday takliflarga boshqa takliflarga nisbatan imtiyozlar berilmaydi.

14.2. Past texnik (funktional) ko'rsatkichlarga ega bo'lgan mahsulot (xizmat) ko'inishida berilgan eng yaxshi takliflarni tanlash takliflari ko'rib chiqilmaydi.

#### **G. ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH TAKLIFINING TOPSHIRILISHI**

##### **16. Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini elektron skaner variantda biriktiriladi.**

16.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash qatnashchisi eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini mazkur eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilgan holda bo'lishi kerak.

##### **17. Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini topshirishning oxirgi muddati**

17.1. Qatnashchilarning eng yaxshi takliflarni tanlash takliflari portalda e'lon berilgan kundan boshlab 5 kalendar kundan kechikmasdan elektron skaner variantda biriktiriladi.

17.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini topshirishning oxirgi muddati hech qanday sharoitda ko'chirilmaydi. (9.1-bandida eslatilgan tasodifiy holatlardan tashqari).

17.4. Eng yaxshi takliflarni tanlash qatnashchisi tomonidan eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlarida talab etilgan ma'lumotlar to'liq taqdim etilmasligi yoki mazkur eng yaxshi takliflarni tanlash hujjatlari talablariga javob bermaydigan takliflar (konvertlarning yopishtirilmasdan berilishi, shakllarning noto'g'ri to'ldirilishi, talab qilingan hujjatlarni taqdim etmaslik va h.k) ko'rib chiqilmaydi va rad etiladi.

##### **18. Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarining ochilishi**

18.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflari berishning belgilangan muddati tamom bo'lgach belgilangan kundan 10 kundan ko'p bo'lmagan muddatda eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi.

#### **D. ENG YAXSHI TAKLIFLARNI TANLASH TAKLIFLARINI BAHOLASH VA G'OLIBLARNI ANIQLASH TARTIBI**

##### **19. Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini baholash va g'oliblarni aniqlash**

19.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini texnik, tashkiliy-moliyaviy va tijorat jihatdan baholash eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi a'zolari tomonidan amalga oshiriladi.

19.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini baholash ikki bosqichdan iborat:

- texnik, tashkiliy-moliyaviy;
- tijorat.

19.2.1. Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini baholash vaqtida Eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi eng yaxshi takliflarni tanlash qatnashchisidan uning eng yaxshi takliflarni tanlash takliflari borasida tushuntirishlar berishini so'rashi mumkin.

19.2.2. Qatnashchilarning tijorat takliflarini barcha uchun teng shartlar asosida o'tkazish maqsadida ularning eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini baholashda, sifatli mahsulot yetkazib berishdan (xizmat ko'rsatishdan, ish bajarishdan) iborat bo'lgan eng yaxshi takliflarni tanlash takliflari bo'yicha qonunchilik asosida qo'shimcha qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari tomonidan soliq summasi kiritib hisob qilinadi.

19.3. Baholar 100 ballik shkala bo'yicha qo'yiladi.

19.4. Eng yaxshi takliflarni tanlash takliflarini ularning texnik amalga oshuvchanligiga nisbatan baholash.

19.5. Eng ko'p ball to'plagan qatnashchi g'olib deb hisoblanadi.

19.15. Eng yaxshi takliflarni tanlash tashkilotchisi eng yaxshi takliflarni tanlash g'olibiga eng yaxshi takliflarni tanlash yakunlangandan keyin Respublika tovar-xom ashyo birjasining [www.etender.uzex.uz](http://www.etender.uzex.uz) maxsus portalida e'lon qiladi.

#### **Ye. SHARTNOMANI RASMIYLASHTIRISH**

##### **21. Shartnomani rasmiylashtirish**

21.1. Buyurtmachi va eng yaxshi takliflarni tanlash g'oliblari o'rtasidagi shartnoma eng yaxshi takliflarni tanlash g'oliblari to'g'risida respublika tovar-xom ashyo birjasining [www.etender.uzex.uz](http://www.etender.uzex.uz) maxsus portalida e'lon qilingan kundan boshlab uch kun muddat ichida tuziladi.

21.2. Agar Eng yaxshi takliflarni tanlash g'olibi shartnoma tuzishni rad etsa yoki belgilangan muddatda shartnomani bajarish uchun kafolat bermasa, u holda Buyurtmachi eng yaxshi takliflarni tanlash komissiyasi qaroriga muvofiq keyingi eng ko'p ballga ega bo'lgan zaxiradagi qatnashchini

eng yaxshi takliflarni tanlash g'olibi deb e'tirof etishi yoki takroriy eng yaxshi takliflarni tanlash o'tkazishni tayinlashi mumkin.

## **22. To'lov shartlari**

22.1. To'lov shartlari imzolanadigan shartnoma talablari asosida qat'iy amalga oshiriladi.

22.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash qatnashchilari tomonidan tavsiya etilgan barcha boshqa to'lovlar va to'lov shakllari qabul qilinmaydi.

## **23. Shartnomani imzolash**

23.1. G'olib qatnashchi 10 (o'n) kun muddat ichida Buyurtmachi bilan shartnoma imzolashi shart.

23.2. Eng yaxshi takliflarni tanlash g'olibining, eng yaxshi takliflarni tanlash xujjatlarida ko'zda tutilgan taqdirda Buyurtmachi hisob raqamiga o'tkazilgan zakalat summasi buyurtmani tugatish muddatigacha qoldirilishi shart.

23.4. G'olib deb topilgan qatnashchi shartnomani bajarish kafolatini bera olmasa yoki shartnoma tuzishdan bosh tortsa, u holda uning taklif kafolati musodara qilinadi va keyingi eng ko'p ball to'plagan qatnashchi bilan shartnoma imzolanishi mumkin.

23.5. Eng yaxshi takliflarni tanlash g'olibi miqdor, sifat hamda texnik ko'rsatkichlari bo'yicha shartnoma talablarini bajarmasa qonun doirasida (yoki shartnoma talablariga asosan) javobgarlikka tortiladi.

**II Bob. Taklif shakllari**

**Qatnashchining texnik taklifini baholash mezonlari**

1-jadval

<b>№</b>	<b>Baholash parametrlarining nomlanishi</b>	<b>Batafsil ma'lumot</b>	<b>Ball</b>	<b>Ishtirokchilar</b>
1	Qurilishga doir hujjatlarni nazorat-o'lchovdan o'tkazishni 30(o'ttiz) kalendar kuni davomida tamomlash	Kafolat xati ilova qilinishi lozim	0 - 10	
2	Qurilish sohasida bajarilgan qurilish nazorat-o'lchov ishlarining 300 mln.so'mdan ortiq bajarilganligi to'g'risida ma'lumot	Shartnoma va elektron hisob fakturalar ilova qilish lozim	0 - 5	
3	Tashkilot rahbari qurilish bo'yicha oliy ma'lumotli bo'lishi.	Pasport nusxasi, diplom va sertifikat ilova qilinishi lozim	0 - 5	
4	Soliq organi va boshqa tashkilotlar bilan muddat o'tgan kreditor qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot	Muddat o'tgan kreditor qarzdorligi mavjud emasligi to'g'risida ma'lumot ilova qilinishi lozim	0 - 5	
5	Xizmat ko'rsatuvchi bankdan Kartateka(K-1 va K-2) mavjud emasligi	Kartateka(K-1 va K-2) mavjud emasligi to'g'risida bank ma'lumotnoma ilova qilinishi lozim	0 - 5	
6	Tashkilot to'g'risida ma'lumot	Guvohnoma, ustav, direktor pasporti nusxasi, sertifikat, litsenziyalar ilova qilinishi lozim	0 - 5	
7	Tashkilot ekspertiza va loyihani amalga oshirish uchun litsenziyalarga ega bo'lishi kerak	Litsenziya ilova qilinishi lozim	0 - 5	
8	Kamida 3 kishidan iborat bo'lgan nazorat o'lchovlarini o'tkazish uchun sertifikatga ega bo'lgan xodimlarga ega bo'lgan tashkilot	(Buyruqlari, Pasport nusxalari, diplom va sertifikatlar ilova qilinishi lozim)	0 - 10	
9	Pudratchi nazorat o'lchovidan keyingi aniqlangan kamchiliklar bo'yicha nazorat qiluvchi organlar oldida javobgarlikni o'z zimmasiga olish;	Kafolat xati ilova qilinishi lozim	0-10	

### III BOB. Shartnoma shakli va texnik talablar

#### Shartnoma raqami \_\_\_\_\_ Qurilish nazorat o'ldhovi o'tkazish uchun

" \_\_\_\_ " \_\_\_\_\_ 2022-yil

Toshkent shahri

\_\_\_\_\_, bundan keyin "Pudratchi" deb yuritiladi, Nizom asosida ish yurituvchi bir tomondan \_\_\_\_\_ va **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi** bundan keyin "Buyurtmachi" deb yuritiladi Nizom asosida ish yurituvchi vazir o'rinbosari **A.Muhammadiyev** esa birgalikda "Tomonlar" deb ataladigan ushbu shartnomani (keyingi o'rinlarda "Shartnoma" deb yuritiladi) quyidagicha tuzdilar:

#### 1. Shartnomaning predmeti

1.1. Shartnoma bo'yicha Pudratchi qurilish nazorat o'ldhovi xizmatlarini ko'rsatish majburiyatini quyidagi obyektlar;

(Obyekt nomi: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'muriy binosini (Toshkent shahar, Mirobod tumani, A.Temur shoh ko'chasi, 16a-uy) kapital ta'mirlash yuzasidan qurilish nazorat o'ldhovi (pudrat shartnomasi summasi 6,5 mlrd.so'm).

Obyekt nomi: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi ma'muriy binosini (Toshkent shahar, Shayxontoxir tumani, Xadra massivi, 33-uy) rekonstruksiya ishlarini yuzasidan qurilish nazorat o'ldhovi (pudrat shartnomasi summasi 14,1 mlrd.so'm))

va Buyurtmachi ushbu Shartnomada belgilangan tartibda va shartlarda ko'rsatilgan xizmatlarni qabul qilish va Pudratchiga haq to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Shartnoma bo'yicha Pudratchi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar ro'yxati Texnik topshiriqda (**Shartnomaga 1-ilova**) belgilanadi, bu ikkala Tomon tomonidan imzolanadi va ushbu Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

1.3. Pudratchi tomonidan xizmatlar ko'rsatish natijalari Buyurtmachiga bosma va elektron shaklda taqdim etiladi.

1.4. Taqdim etilgan xizmatlarning natijalari maslahat xarakteriga ega va faqat Buyurtmachi uchun axborot xarakteriga ega, shu bilan birga ular uchinchi shaxslar uchun majburiy emas.

1.5. Pudratchi Pudratchiga haq to'langanidan keyin ushbu Shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar natijalaridan foydalanish va ularni tasarruf etish huquqini Buyurtmachiga o'tkazadi.

#### 2. Xizmatlarni ko'rsatish muddati

2.1. Buyurtmachi Shartnomaning 4.2.1.-bandiga muvofiq avans to'lovini to'laganidan keyin Pudratchi 3 ish kunidan kechiktirmay xizmatlar ko'rsatishni boshlaydi. Buyurtmachi tomonidan tegishli hujjatlarni topshirish.

2.2. Agar mijoz 4.2-bandda ko'rsatilgan miqdorni to'lamagan bo'lsa ushbu Shartnomaning 4.2-bandida ko'rsatilgan muddat tugaganidan keyin 10 bank kuni ichida Shartnomaga muvofiq, Tomonlar Pudratchi tomonidan qurilish nazorat o'ldhovi xizmatlarini ko'rsatish shartlarini va Buyurtmachi tomonidan ularni to'lash shartlarini ko'rib chiqishlari shart.

#### 3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

3.1. Pudratchi quyidagilarga majbur:

3.1.1. Shartnoma shartlariga muvofiq mijozga xizmatlarni o'z vaqtida va to'g'ri ko'rsatish.

3.1.2. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha o'zgarishlarni Buyurtmachi bilan kelishish va ularni Shartnomaga qo'shimcha kelishuvlarda rasmiylashtirish;

3.1.3. Buyurtmachining iltimosiga binoan ushbu Shartnomani amalga oshirishdagi ishlarning holati to'g'risida xabardor qilish;

3.1.4. Ko'rsatilayotgan xizmatlarda kamchiliklar aniqlanganda — aniqlangan kamchiliklarni

o'z vaqtida va o'z mablag'lari hisobidan bartaraf etish;

3.1.5. Buyurtmachining oldindan yozma roziligisiz ko'rsatilgan xizmatlar natijalarini yoki ularning qismlarini uchinchi shaxslarga bermaslik;

3.1.6. Shartnomaning 1.3-bandiga muvofiq tuzilgan ko'rsatilgan xizmatlar natijalarini ko'rsatilgan qurilish nazorat o'lchovi to'g'risidagi dalolatnoma bilan birgalikda Buyurtmachining vakolatli vakiliga topshirish;

3.1.7. Shartnoma shartlarida va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

3.2. Pudratchi quyidagi huquqlarga ega:

3.2.1. O'zining isbotlangan texnologiyalari va tahlil usullaridan foydalanish;

3.2.2. Shartnomada belgilangan muddatlarda va miqdorda ularga ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lashni talab qilish.

3.2.3. Shartnoma bo'yicha o'ziga yuklangan majburiyatlarni bajarish uchun uchinchi shaxslarni jalb qilish, ular bilan tuzilgan Xizmat shartnomalari asosida, shu bilan birga, Buyurtmachi oldida ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi uchun javobgarlikni saqlab qolish;

3.2.4. Buyurtmachi Shartnoma shartlarini buzgan va yoki Shartnoma shartlariga muvofiq avans to'lovini amalga oshirmagan hollarda ushbu Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatishni bir tomonlama rad etish.

3.3. Buyurtmachi quyidagilarni o'z zimmasiga oladi:

3.3.1. Pudratchiga ushbu Shartnomaning 4-bandida ko'rsatilgan shartlar bo'yicha haq to'lashni o'z vaqtida to'lash;

3.3.2. Barcha hujjatlarni o'z vaqtida topshirish;

3.3.3. Taqdim etilgan hujjatlarning haqiqiyliги uchun barcha javobgarlik Buyurtmachi zimmasida.

3.3.4. Shartnoma shartlariga muvofiq Pudratchi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi dalolatnomani imzolash;

3.3.5. O'z aybi bilan o'z zimmasiga olgan majburiyatlar o'z vaqtida yoki to'liq bajarilmagan taqdirda, shuningdek, ushbu Shartnoma o'z tashabbusi bilan muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda Buyurtmachi Pudratchiga yetkazilgan xarajatlarga mos keladigan xarajatlarni to'lashi shart.

3.3.6. Pudratchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha taqdim etilgan natijalardan faqat o'z maqsadlari uchun foydalanish, nusxalash, tarqatish.

3.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

3.4.1. Shartnoma bo'yicha qurilish nazorat o'lchovi xizmatlarini o'z vaqtida ko'rsatishni talab qilish;

3.4.2. Pudratchining kasbiy vakolatlari sohasiga aralashmasdan, Pudratchi tomonidan shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatish ustidan nazoratni amalga oshirish;

3.4.3. Pudratchi va uning xodimlaridan ushbu Shartnoma shartlarini bajarish jarayonida ularga ma'lum bo'lgan ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlashni talab qilish.

#### **4. Hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari va tartibi**

4.1. Pudratchining ushbu Shartnoma bo'yicha haq to'lash miqdori miqdori hisoblanadi. -

---

so'm QQS bilan yoki QQSsiz.

4.2. Shartnoma bo'yicha Pudratchiga haq to'lash Buyurtmachi tomonidan quyidagicha amalga oshiriladi:

4.2.1. Shartnoma imzolangan kundan boshlab 10 ish kuni ichida Buyurtmachi Pudratchining hisob-kitob hisobvarag'iga 4.1-bandda ko'rsatilgan summaning 30 foizi miqdorida avans to'lovini o'tkazadi.

4.2.2. Shartnomaning 4.1-bandida ko'rsatilgan summaning 70 foizi miqdorida Pudratchiga to'lanadigan haqning qolgan summasi Buyurtmachi tomonidan Shartnomaning 5-bandida ko'rsatilgan xizmatlar tugagandan va yetkazib berilgandan so'ng to'lanadi.

4.3. Buyurtmachining Shartnoma bo'yicha moliyaviy majburiyatlari Pudratchining hisob-kitob hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan naqd pulsiz shaklda to'lanishi kerak.

4.4. Tomonlar ko'rsatilgan qurilish nazorat o'lchovi xizmatlari to'g'risidagi dalolatnomani imzolagandan so'ng Pudratchi Buyurtmachiga hisob-fakturani taqdim etadi.

#### **5. Ko'rsatilgan xizmatlarni yetkazib berish va qabul qilish tartibi**

5.1. Shartnoma shartlariga muvofiq Pudratchi zimmasiga yuklangan majburiyatlarning bajarilishi faktining tasdiqlanishi ko'rsatilgan maslahat xizmatlari to'g'risidagi dalolatnomaning tomonlar tomonidan imzolanishi hisoblanadi.

Pudratchi ushbu shartnoma bo'yicha barcha xizmatlarni taqdim etgandan so'ng, Tomonlar ko'rsatilgan maslahat xizmatlari to'g'risida dalolatnoma tuzadilar va imzolaydilar. Ushbu Akt ikki Tomon tomonidan imzolangan paytdan boshlab Pudratchi ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargan deb hisoblanadi.

5.3. Buyurtmachi ko'rsatilgan qurilish nazorat o'lchovi xizmatlari to'g'risidagi dalolatnomani imzolashdan bosh tortgan (bo'yin tovlagan) taqdirda, Buyurtmachi Pudratchidan yuqoridagi dalolatnomani olgan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida yozma ravishda asoslantirilgan rad etishni taqdim etishga majburdir.

5.4. Buyurtmachi ko'rsatilgan qurilish nazorat o'lchovi xizmatlari to'g'risidagi dalolatnomani imzolashdan asosli bosh tortgan taqdirda, tomonlar uch kun ichida aniqlangan kamchiliklar ro'yxati va ularni bartaraf etish muddatini majburiy ko'rsatgan holda tegishli akti imzolaydilar. Kamchiliklarni bartaraf etishning umumiy muddati 10 (o'n) bank kundan oshmasligi kerak.

5.5. Agar ko'rsatilgan xizmatlar to'g'risidagi dalolatnoma olingan kundan boshlab 5 (besh) bank kuni ichida Buyurtmachi yozma ravishda asoslantirilgan rad etishni taqdim qilmagan bo'lsa, Pudratchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlari tegishli ravishda bajarilgan deb hisoblanadi.

#### **6. Tomonlarning javobgarligi**

6.1. Shartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Pudratchi va Buyurtmachi ushbu Shartnoma shartlari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq mulkiy javobgar bo'ladilar.

6.2. Pudratchi Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan axborot materiallarining mazmuni uchun javobgar emas.

6.3. Xizmatlar uchun to'lov shartlari buzilgan taqdirda, Buyurtmachi Pudratchiga 4.1-bandda ko'rsatilgan ish haqi miqdorining 0,4% miqdorida penya to'laydi. shartnoma bo'yicha, kechiktirilgan har bir kun uchun, shu bilan birga penyaning umumiy miqdori shartnomaning 4.1-bandda ko'rsatilgan miqdorining 50 foizidan oshmasligi kerak.

6.4. Pudratchi, Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartlarini buzgan taqdirda, Buyurtmachiga shartnomaning 4.1-bandda ko'rsatilgan miqdorining 0,5% miqdorida penya to'laydi. Shartnomaning kechiktirilgan har bir kuni uchun, shu bilan birga penyaning umumiy miqdori shartnomaning 4.1-bandda ko'rsatilgan miqdorining 50 foizidan oshmasligi kerak. Pudratchi Shartnoma bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartlarini buzganlik uchun javobgar bo'lmaydi, agar bunday buzilish Buyurtmachi tomonidan ushbu Shartnomaning 3.3.1-bandida nazarda tutilgan qarshi majburiyatlarni bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yuzaga kelgan bo'lsa.

6.5. Shartnoma bo'yicha majburiyat lozim darajada bajarilmagan taqdirda penya to'lash va yetkazilgan zararni qoplash qarzdorni majburiyatni natura shaklida bajarishdan ozod qilmaydi.

6.6. Shartnoma bo'yicha pudratchi nazorat o'lchovidan keyingi aniqlangan kamchiliklar bo'yicha nazorat qiluvchi organlar oldida javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

#### **7. Tomonlarning javobgarligini istisno qiluvchi holatlar**

7.1. Tomonlarning hech biri fors-major holatlarining (fors-major) yuzaga kelishi bilan bog'liq bo'lgan va o'zi oldindan ko'ra olishga qodir bo'lmagan majburiyatlarini bajarmaganligi va yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun ushbu Shartnoma bo'yicha javobgar bo'lmaydi. Bunday holatlar quyidagilardir: tabiiy ofatlar (yong'inlar, suv toshqini, zilzilalar va boshqalar), ijtimoiy

nizolar (ish tashlashlar, urushlar va boshqalar), shuningdek, taqdim etilgan ishlarni bajarishni sezilarli darajada murakkablashtiradigan, cheklaydigan yoki taqiqlovchi qonun hujjatlarining kuchga kirishi.

7.2. Agar fors-major holatlari 2 (ikki) oydan ortiq vaqt davomida mavjud bo'lsa, unda Ishtirokchilarning har biri ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarishni rad etishga haqli va bu holda hech bir tomon talab qilishga haqli emas.

### **8. Korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlar**

8.1. Taraflar shartnoma tuzishda, shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugaganidan so'ng, shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy harakatlar sodir qilmaslikka kelishib oladilar.

8.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha hamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul, moddiy qiymatliklar berilmaganligini, shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki boshqa moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini, taklif etilmaganligini, ularni berishga va'da qilinmaganligini, shuningdek moddiy yoki har qanday turdagi imtiyoz, ustunliklar olinmaganligini (kelajakda bu turdagi harakatlarni amalga oshirishi mumkinligi haqida taassurot qoldirilmaganligini) kafolatlaydi. Taraflar, ular tomonidan shartnoma doirasida jalb qilingan shaxslarning (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslarning) yuqoridagi harakatlarni sodir etmasligi yuzasidan oqilona choralar ko'radi.

8.4. Taraflar davlat xizmatchilari, siyosiy partiyalar, shuningdek o'zlarining ijroiya organlari, mansabdor shaxslari va xodimlari tomonidan har qanday vaqt va shaklda quyidagi harakatlarni bevosita yoki bilvosita (shu jumladan, uchinchi shaxslar orqali) sodir etilishiga yo'l qo'ymaydi: a) nazorat qiluvchi organlardan litsenziya va ruxsatnomalar olish, soliq solish, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, sudda ish ko'rilishi, qonunchilik jarayoni va boshqa sohalarda qonunga xilof ravishda tijorat yoki boshqa tUSDagi ustunlikka ega bo'lish yoki saqlab qolish maqsadida yuqoridagi shaxslar foydasiga yoki ular tomonidan moddiy yoki nomoddiy naf olishning taklif etilishi, va'da qilinishi, berilishiga; b) qonunga xilof ravishda olingan daromadlarning legallashtirilishiga, shuningdek, agar mulk jinoiy faoliyatdan olingan daromad ekanligi taraflarga ma'lum bo'lsa, uni o'tkazish, mulkka aylantirish, yoxud almashtirish yo'li bilan uning kelib chiqishiga qonuniy tus berish, bunday pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulkning asl xususiyatini, manbaini, turgan joyini tasarruf etish, ko'chirish usulini, pul mablag'lariga yoki boshqa mol-mulkka bo'lgan haqiqiy egalik huquqlarini yoki uning kimga qarashlilikini yashirishga; v) korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir qilish uchun ta'magirlik qilish, undash, tazyiq o'tkazish yoki tahdid qilish. Ushbu holat bo'yicha bir taraf ikkinchi tarafni hamda vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5. Taraflar tovarlar, ishlar va xizmatlarni realizatsiya qilish va o'tkazishda bitimlar tuzish bo'yicha muzokaralar olib borishda, litsenziya, ruxsatnomalar va boshqa ruxsat etish xususiyatiga ega bo'lgan hujjatlarni olishda yoki ularning manfaatlarini ko'zlab boshqa harakatlarni amalga oshiruvchi taraflarning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslarga (shu jumladan, yordamchi pudratchilar, agentlar, savdo vakillari, distribyutorlar, huquqshunoslar, hisobchilar, ular nomidan harakat qiluvchi boshqa vakillarlariga) nisbatan quyidaagi harakatlarni amalga oshirishlari shart: - korrupsiyaviy harakatlarga yo'l qo'yib bo'lmasligi va korrupsiyaviy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lishi shartligi haqida ko'rsatmalar va tushuntirishlar berish; - ulardan korrupsiyaviy harakatlarni amalga oshirish uchun vositachi sifatida foydalanmaslik; - ularni faqat taraflarning oddiy kundalik faoliyati jarayonidagi ishlab chiqarish zarurati doirasidan kelib chiqib ishga jalb qilish; - ularga qonunchilik doirasida amalga oshirgan xizmatlari uchun belgilangan haq miqdoridan asossiz ravishda ortiqcha to'lovlarni amalga oshirmaslik.

8.6. Taraflar ularning nazorati ostida bo'lgan va ular nomidan harakat qiladigan shaxslar

tomonidan korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlarda belgilangan majburiyatlar buzilganligi holatlari haqida xabar berilganligi uchun ularga tazyiq o‘tkazilmasligini kafolatlaydilar.

8.7. Agar bir tarafga boshqa tarafning korrupsiyaga qarshi qo‘shimcha shartlarning 7.4- va 7.5-bandlarida belgilangan majburiyatlarni buzilishiga yo‘l qo‘yilganligi ma‘lum bo‘lib qolsa, ikkinchi tarafni bu haqda zudlik bilan xabardor qilishi va ushbu tarafdan oqilona muddat ichida tegishli choralar ko‘rilishini va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan unga xabardor qilishini talab qilishi shart. Tarafning talabi bo‘yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarliklarni bartaraf qilish bo‘yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko‘rilmagan yoki ko‘rib chiqish natijalari haqida xabardor qilmagan taqdirda, ushbu taraf zararni to‘liq qoplab berishni talab qilishga haqli.

### **9. Yakuniy qoidalar**

9.1. Shartnoma har ikki tomonning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va tomonlar uchun majburiy bo‘ladi.

9.2. Shartnoma imzolanganidan so‘ng, ushbu Shartnomaning predmeti bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha tomonlarning oldingi barcha dastlabki kelishuvlari, muzokaralari va yozishmalari haqiqiy emas deb hisoblanadi.

9.3. Shartnomaning barcha ilovalari vakolatli shaxslar tomonidan imzolangan paytdan boshlab uning ajralmas qismi hisoblanadi.

9.4. Shartnoma tomonlar u bo‘yicha o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarmaguncha amal qiladi.

9.5. Shartnomaga o‘zgartirishlar kiritish va bekor qilish tomonlarning kelishuvi bilan, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan hollarda mumkin.

9.6. Tinchlik yo‘li bilan hal etilmagan barcha nizo va kelishmovchiliklarni tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi normalariga muvofiq sudda hal qiladilar.

9.7. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo‘lgan ikki nusxada tuzilgan, tomonlarning har biri uchun bittadan.

9.8. Shartnomaning amal qilish muddati 2022-yil 31-dekabrgacha.

### **10. Taraflarning manzillari va rekvizitlari:**

**Pudratchi**

**Buyurtmachi**

2022-yil “ ” dagi -sonli shartnomaga ilova

### **TEXNIK TOPSHIRIQ (Nazorat o‘lchovi uchun)**

**Obyekt nomi:** O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma‘muriy binosini (Toshkent shahar, Mirobod tumani, A.Temur shoh ko‘chasi, 16a-uy) kapital ta‘mirlash yuzasidan qurilish nazorat o‘lchovi (pudrat shartnomasi summasi 6,5 mlrd.so‘m).

**Obyekt nomi:** O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi

ma'muriy binosini (Toshkent shahar, Shayxontoxir tumani, Xadra massivi, 33-uy) rekonstruksiya ishlarini yuzasidan qurilish nazorat o'lchovi (pudrat shartnomasi summasi 14,1 mlrd.so'm).

**Obyekt Buyurtmachi : O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi**

**Pudratchi:** \_\_\_\_\_

**Pudratchining vazifasi:**

qurilish loyihasi bo'yicha tuzilgan shaharsozlik hujjatlari va hisobotlarning to'liqligi va to'g'riligini tekshiradi;

loyiha hujjatlari, bajarilgan ishlar bo'yicha takliflar va hisob-fakturalar asosida qurilish maydonchasida haqiqatda bajarilgan jismoniy ishlarning hajmini o'lchaydi;

shartnoma asosida nazorat o'lchovi natijalariga ko'ra, loyiha hujjatlarida, taklif va hisobotlarda nazarda tutilgan ish turlari bo'yicha amalda bajarilgan ish turlarini belgilaydi;

nazorat o'lchovlari natijasida qurilish obyektida haqiqatda bajarilgan ishlar hajmida loyihadan chetga chiqishlarni ko'rsatadi;

qurilish obyektlarida hajm, hisob-kitob, texnik ko'rsatkichlar buyurtmachi va pudratchi o'rtasidagi rasmiy kelishuv, shartnoma, taklif, loyiha hujjatlari va hisobotlar asosida qo'llanilishini tekshiradi;

hisobotda ko'rsatilgan aloqa uskunalari va tizimlari sinovdan o'tganligini tekshiradi;

nazorat o'lchovlari natijalarining maxfiyligini ta'minlaydi;

hisobotlar va boshqa hisob-kitoblardagi arifmetik xatolarni tekshiradi.

**Buyurtmachi vazifasi:**

barcha kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etish.

**Maqsad:**

tugallangan dalolatnomalarga muvofiq amalda bajarilgan qurilish-montaj ishlarini aniqlash (shakl-5).

qurilish-montaj ishlarini bajarish va bajarish jarayonida yo'l qo'yilgan qoidabuzarliklar va qo'shimchalarni o'z vaqtida bartaraf etish.

**Taqdim etiladigan ma'lumotlar va dastlabki hujjatlar:**

tender hujjatlari;

bajarilgan ish dalolatnomasi (shakl-5);

tasdiqlangan hisob-faktura (F-3);

qurilish-montaj ishlari bo'yicha shartnoma;

xarajatlar smetasi;

ekspert xulosasi;

qayta hisoblash uchun ekspertiza xulosasi;

yashirin ishlar dalolatnomalari, ijro hujjatlari;

**Buyurtmachining maxsus shartlari;**

nazorat o'lchovi jarayonda aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish;

pudratchi nazorat o'lchovidan keyingi aniqlangan kamchiliklar bo'yicha nazorat qiluvchi organlar oldida javobgarlikni o'z zimmasiga olish;

**Pudratchining maxsus shartlari;**

Buyurtmachi вакили nazorat o'lchoviga hamrohlik qilish.

**Muddati:** shartnomaga muvofiq.

**Pudratchi**

**Buyurtmachi**